

823(2P)
432



O'ZBEK XALQ ERTAGI

**BOYVACHCHA BILAN
PARI**



УЗБЕКСКАЯ НАРОДНАЯ СКАЗКА

ДЖИГИТ И ПЕРИ



Книга должна быть возвращена не
позже указанного здесь срока

Количество предыдущих выдач _____

19.12.22.

82.3(2P)
y32

O'zbek xalq ertagi

BOYVACHCHA BILAN PARI



Узбекская народная сказка

ДЖИГИТ И ПЕРИ



«Extremum press»
TOSHKENT
2009



82.3(2 Pyc)
Ў 32

O'zbek xalq ertagi. Boyvachcha bilan pari. (O'zbek va rus tillarida). T.: «Extremum press» MCHJ, 2009. – 32 b.

ББК 82.3(2 Pyc)

BOYVACHCHA
BILAN PARI



ЎЗБЕК ХАЛҚ ҲАДОСИ

ДЖАНТИ И ПЕРИ



ISBN 978-9943-369-12-2

«Extremum press» MCHJ, 2009.
© «LOTUS GRAFICA» MCHJ, original-maket, 2009.

Bor ekan-u yo'q ekan, och ekan-u, to'q ekan, bir boy bor ekan. U boyning uch o'g'li bor ekan. O'g'illar voyaga yetgach boy avval ikki o'g'lini uylantirib, uyjoyli qilibdi. Keyin kenja o'g'lini uylantirmoqchi bo'libdi. Kenja o'g'il Sari yoy otar ekan. Bir kun Sari yoy olib, ov ovlab yurgan ekan, bir yerdan bir tustovuq uchib tog'ning kamariga qarab ketaveribdi. Kenja o'g'il tustovuqning orqasidan bir o'qni kamonga solib otibdi, o'qi tustovuqqa tegmabdi. Tustovuq bir g'orga kirib ketibdi. Kenja o'g'il Sari yoyning o'qini olayin deb g'orga kiribdi. Borib ko'rsa, g'or parilarning makoni ekan. Shu orada bir yoshgina pari qiz kelib, uning qo'lidan ushlab yetaklab ketibdi. Yigit g'orning ichida parilar bilan qo'shilib qirq kun yuribdi. Qirq kundan keyin yigitning qo'lidan ushlab g'orning ichiga olib kirgan pari qiz aytibdi:

– Ey yigit, sen qaysi yurtidan bo'lasan?

– Men falon yurtidan bo'laman, – debdi kenja o'g'il. Pari yana so'rabdi:



Bыло или не было, сытно или голодно – в давние времена жил один старик. Было у него трое сыновей. Выросли они и решил старик их женить. Сначала он женил двух старших и построил им дома. А потом заговорил и о свадьбе младшего.

А младший его сын очень любил охотиться.

Однажды взял он лук и стрелы и отправился в горы. Вдруг из-за камня вылетел фазан. Прицелился юноша, стрелу пустил, но не попал в птицу. Фазан в пещеру залетел, а потом убежал через другой выход. Юноша подумал: «Хоть стрелу свою поищу», – и зашёл в пещеру.

А в пещере этой пэри жили.

Подошла к юноше одна прекрасная пэри, взяла его за руку и повела за собой. Сорок дней байбача в пещере пробыл, с пэри пировал, веселился.

Через сорок дней пэри, спрашивает:

– Эй, джигит, из какой ты страны?

Юноша рассказал ей. Пэри ещё спрашивает:



– Sening ota-onang, qarindosh-urug'ing bormi?

Yigit:

– Ha, otam, onam, ikki akam bor, boshqa qarindoshlarim ham bor, – debdi.

– Unday bo'lsa endi sen yurtingga borib, otangga: «Ey ota, menga bir ravot solib bering!» degin. Otang: «Ravotni nima qilasan, o'g'lim?» desa, «O'zim kirib-chiqib yuraman», degin, – debdi pari.

Pari bu gaplarni o'rgatib, yigitni o'z yurtiga jo'natibdi. Kenja o'g'il uyiga kelgach, otasi bilan ko'rishib, so'rashib o'tiribdi. Yigit otasiga aytibdi:

– Ota, menga bir katta ravot solib bering!

– O'g'lim, senga ravotning nima keragi bor? Avval uylangin, joylangin, undan keyin ravot qurib beraman-da, bolam, – debdi otasi.

Kenja o'g'il:

– Ey ota, uyim-joyim bo'lmasa ham o'zim kirib-chiqib yuraman-da, – debdi.



– А есть у тебя отец, мать, родные, близкие?

– Да, – ответил байбача. – Есть у меня и отец, и мать, два старших брата, да и другие родственники есть.

– Если так, – говорит пэри, – то возвращайся и скажи своему отцу: «Отец, постройте мне дом!» Если спросит отец: «Зачем тебе дом? Что ты в нём делать будешь?» – ты скажи: «Да так, жить в нём хочу».

После этого разговора юноша отправился домой. Сидел он как-то с отцом, беседовал и вдруг попросил:

– Отец, постройте мне большой дом!

– Сынок, а зачем тебе дом? – говорит ему старик. – Семьи у тебя ещё нет. Женись раньше, а тогда и дом можно будет построить.

Байбача все просит:

– Ах, отец! Семьи у меня пока нет, но пусть будет у меня свой дом.

– Ладно, сынок! – отвечает старик. Позвал мастеров, построили они красивый дом для младшего сына.

Boy:

– Xo‘p, o‘g‘lim, – debdi va ustalarni olib kelib, bir yaxshi gumbirlagan ravot solib beribdi.

– Ana, o‘g‘lim, ravot bitdi, – debdi boy. Kenja o‘g‘il tag‘in yoy olib ovga chiqib ketibdi. Aylanib-aylanib, yana parilar yashaydigan g‘orga boribdi. Yigitni pari qiz kutib o‘tirgan ekan. Uni ko‘rishi bilanoq yana qo‘lidan ushiab, yetaklab, ichkariga olib kiribdi. Yigit pari qiz bilan o‘ynab-kulib yuraveribdi. Bir necha kun o‘tgach, yigit pariga aytibdi:

– Endi men ketaman, – debdi.

Pari aytibdi:

– Ketsang, otangga borib, «Ota, bu ravotning ichiga oq o‘tov tikib bering», – degin.

Yigit pari bilan xayrlashib, uyiga jo‘nabdi. Boyvachcha uyiga borib otasiga aytibdi:

– Ota, ravotning ichiga bir oq o‘tov tikib bering!

– Xotining bo‘lmasa, o‘tovni nima qilasan, o‘g‘lim? – debdi otasi.

– O‘zim unda yotib yuraman-da, – debdi yigit:

– Ha, durust, – debdi-da, bir yarqillagan oq o‘tov tikib beribdi.

Boy o‘g‘liga aytibdi:

– O‘g‘lim, mana o‘toving ham bitdi.

Yigit yana yoyni olib, ovga chiqib, parilar turadigan g‘orga boribdi. Pari qiz yigitni kutib o‘tirgan ekan, uni ko‘rishi bilanoq oldiga kelib: «O‘tov tikdingizmi?» deb so‘rabdi. Yigit:

– O‘tov ham tayyor bo‘ldi, – debdi.

Pari:

– O‘tov bitgan bo‘lsa, yuring endi boraylik, – deb yo‘lga chiqibdi. Pari qiz yigit bilan birgalikda ravotga kelib, oq o‘tovga kiribdi. Ular er-xotin bo‘lib yashayveribdilar.

Pari qizning odati qiziq ekan, u odamlarning ko‘ziga mushuk bo‘lib, kenja o‘g‘ilning ko‘ziga pari qiz bo‘lib ko‘rinar ekan.

Kunlardan bir kuni yigitning otasi o‘z ko‘nglida: «Borib o‘g‘limdan bir xabar olayin, ravotda nima qilar ekan, bir bilib kelayin», deb ravotga boribdi. O‘tovga kirib qarasa, kenja o‘g‘li bir o‘zi o‘tirgan emish, yonboshida esa bir mushuk bor emish.

Boy o‘g‘lidan:

– Bolam, nima qilib o‘tiribsan? – deb so‘rabdi. Yigit:

– Ota, ichkari kiraman, tashqari chiqaman, mana bu mushugim bor, shu bilan ovunib o‘tiribman-da, – deb javob beribdi.

– Ну вот, сынок, дом твой готов! – сказал отец.

Джигит опять на охоту уехал. Ездил, ездил и подъехал к пещере, где пэри живут.

А прекрасная пэри сидела у входа, поджидала его. Взяла она юношу за руку и опять увела к себе в пещеру. Спустя несколько дней юноша говорит пэри:

– Надо мне домой съездить.

– Поезжай, – отвечает пэри, – да попроси отца в своей усадьбе белую юрту поставить.

Приехал джигит домой и попросил:

– Отец, прикажите в моей усадьбе белую юрту поставить!

– Зачем тебе белая юрта? – говорит старик. – Жены у тебя нет, что ты там делать будешь?

– Буду ночевать в ней, – отвечает юноша.

– Ладно! – согласился отец и поставил для сына белую юрту.

– Ну вот юрта готова! – говорит старик.

Юноша опять лук и стрелы взял и поехал на охоту. Подъезжает к пещере, а пэри уже его ждёт. Увидела его, подбегает и спрашивает:

– Ну как? Поставили юрту?

– Юрта готова, – отвечает джигит.

– Ну раз юрта готова, тогда поехали, – говорит пэри.

Сели они вместе на коня и поехали в усадьбу юноши. Зашли в белую юрту и стали жить как муж и жена.

А эта пэри обладала особым свойством. Когда на неё другие люди смотрели, то видели кошку, и только для юноши она оставалась красавицей. Захотелось однажды старику пойти посмотреть, как его младший сын в своей усадьбе живёт, что он там делает. Пришёл туда старик, зашёл в юрту, видит: сидит его сын один, а рядом с ним кошечка.

– Что ты делаешь здесь, сынок? – спрашивает старик.

– Да вот зайду сюда, посижу, потом во дворе погуляю. Вот с кошечкой забавляюсь.

Посидел немного старик, поговорил с сыном и ушёл домой. Прошло пять дней, пэри и говорит байбаче:

– Сходи к своим родным, принеси мне кислого молока, голову надо помыть.

Пошёл юноша к старшему брату, попросил у его жены пиалу кислого молока и принёс пэри.

Boy o'g'li bilan biroz so'zlashib o'tirib uyiga ketibdi.

Oradan to'rt-besh kun o'tibdi, shunda pari yigitga: «Otangizning uyiga borib, bosh yuvish uchun qatiq olib keling», debdi.

Yigit uyiga borib katta akasining xotinidan bir piyola qatiq so'rabdi. Kelin oyisi bir piyola qatiq beribdi. Yigit ravotga qatiq olib kelibdi.

Pari aytibdi:

– Bir piyola qatiq bosh yuvish uchun yetadimi? Ko'proq olib kelsangiz bo'lardi. Hali ham bo'lsa borib yana qatiq olib keling, – debdi. Yigit borib yana kelin oyisidan bir kosa qatiq olib kelibdi.

Pari aytibdi:

– Bosh yuvish ham o'yinchoqmi? Boring, bir korson qatiq olib keling, – debdi. Yigit borib bir korson qatiq bilan jom olib kelibdi.

Pari boshini yuvmoqchi bo'lib, yigitga:

– Endi siz eshikka chiqib turing, – debdi. Yigit eshikka chiqib turibdi.

Pari sochini yozib, bir sandalning ustiga chiqib yuvaveribdi. Yigit ko'nglida: bir ko'rayin, parining sochi qanday bo'lar ekan? – deb o'ylabdi. Sekin bildirmay, o'tovning bir kichik teshigidan qarabdi. Ko'rsa, parining o'zi sandalning ustida tikka turibdi, sochi esa yerga tegib turibdi.

«E, parining sochiga ko'p qatiq ketganicha bor ekan», deb o'ylabdi. U pari boshini yuvib bo'lgandan so'ng o'tovga kiribdi. Yigit pari bilan o'ynab-kulib yuraveribdi.

Kunlardan bir kun yigitning otasi ravotga kelib, o'g'lim nima qilib o'tirgan ekan, deb sekin o'tovga qarabdi. O'tov ichida o'g'li bilan bir pari o'tirgan emish, uning husni atrofni yoritib turgan emish. Uning jamoli hatto qorong'u kechani ham yoritay emish. Boy ichidan quvonib ketibdi.

– Bolapaqir ravot bilan o'tovga loyiq xotin topib olibdi, /– deb dimog'i chog' bo'lib, kelganini ularga bildirmay, indamasdan uyiga qaytib ketibdi.

Kundan-kun, oydan-oy, yildan-yil o'tibdi. Boyning bir qarindoshi to'y qilmoqchi bo'libdi. Boy to'yga non yoqtirib yuborish uchun ikki o'g'liga bir botmondan ikki botmon un, sarp qilib yuborish uchun bir qancha mato beribdi.

Buni eshitgan pari kelin, yigitga:

– Siz ham borib otangizdan un, tikish uchun mato olib keling, – debdi.

– Да разве одной пиалы кислого молока хватит, чтобы голову вымыть? – говорит пэри. – Сходи, ещё принеси!

Опять пошёл юноша к своим невесткам и принёс ещё одну большую пиалу молока.

– Да ты что думаешь? – говорит пэри. – Голову мыть – это дело серьёзное! Пойди, принеси мне целый кувшин кислого молока и большой таз.

Пошёл юноша третий раз и принёс кувшин кислого молока и таз. Пэри приготовила всё для мытья головы и говорит байбаче:

– А ты выйди, за дверью постой!

Юноша вышел из юрты, а пэри распустила волосы, расчесала, взобралась на сандал и начала мыть их. Стоит юноша во дворе и думает: «Взгляну-ка, какие у моей пэри волосы». Подошёл потихоньку и заглянул в щелочку. Пэри на сандале стоит, а волосы её земли касаются. «Да, чтобы такие волосы помыть, много кислого молока надо», – подумал юноша.

Снова как-то наведалься отец в усадьбу, поглядеть, как там его сын живёт, что делает. Но на этот раз он тихонько подошёл и заглянул в юрту. Видит: сидит его сын рядом с пэри, а красота её всю юрту своим светом озаряет. Обрадовался старик и думает: «Так вот зачем моему сыну усадьба и юрта понадобились. Хорошую жену он себе нашёл». И, ни слова не говоря, потихоньку ушёл довольный домой.

Так проходили день за днём, месяц за месяцем. Один родственник старика готовился свадьбу справлять. Старик своим старшим сыновьям дал по восемь пудов муки, чтобы их жёны лепёшки испекли для свадебного тоя, ситцу дал платья невесте шить. Узнала об этом пэри и говорит джигиту:

– А ты чего сидишь? Иди к отцу, возьми у него муки, ситцу возьми, будем к свадьбе готовиться.

Джигит ей говорит:

– А разве ты, пэри, умеешь лепёшки печь? Разве ты шить умеешь? А если отец меня спросит: «Зачем тебе всё это?», что я ему отвечу?

– Ничего, – говорит пэри. – Лепёшки как-нибудь испечём, платья как-нибудь сошьём.

Пошёл джигит к отцу и просит:

Yigit:

– Siz pari bo'lsangiz, nonni qanday qilib yopasiz? Matoni qanday qilib tikasiz? Otam «Nima qilasan?» deb so'rasa, men nima deb javob beraman? – debdi. Pari aytibdi:

– Unni bir amallab ko'mach qilib berarmiz, matoni esa choki yirik bo'lsa ham bir amallab kiyim qilib berarmiz.

Yigit uyiga borib otasiga aytibdi:

– Bizga ham un, mato bering.

Buni eshitgan kelin oyilaridan biri:

– Hoy boyvachcha, xotiningiz bo'lmasa, unni qanday qilib non qildirasiz, sarponi qanday qilib tikasiz? – debdi.

Yigit ularga xotining so'zini aytibdi, un va matoni olib, ravotga qaytibdi. Yigit xomush bo'lib pariga aytibdi:

– Aytganlaringizni olib keldim. Endi nonni qanday yopamiz, matodan kiyimlarni qanday tikamiz?

Pari:

– Sizning bu un bilan va bu sarpo tikishlar bilan ishingiz bo'lmasin! Siz o'zingiz ko'rgan g'orga borib, ichkari kirmay, «Hoy, parilar, o, parilar, orangizda yaxshi non yopuvchi novvoylar, yaxshi kiyim tikuvchilar, mening yonimga kelaveringlar!», deb chaqiring, ular ichkaridan chiqib, «Yigit, kelavering», deydilar. Siz ichkari kirmay, orqaga qaytasiz – debdi.

Bugun o'tdi, tong otdi.

Yigit Sari yoyni olib, g'orga qarab jo'nabdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, ertasi choshgohda g'orga yetibdi. Yigit g'orning og'ziga borib:

– Hoy, hoy parilar, o, parilar, yaxshi non yopuvchi novvoylar, yaxshi kiyim tikuvchilar, mening yonimga kelaveringlar! – debdi.

Parilar chiqib yigitga:

– Ichkariga kira bering, – deyishibdi, yigit ichkari kirmay, orqasiga qaytibdi. Bir kecha-yu, bir kunduz yo'l yurib ravotga qaytib kelibdi.

Pari so'rabdi:

– Aytib keldingizmi?

– Aytib keldim, – deb javob beribdi yigit. Orqasidan ikki pari kelib, bir uy unni xamir qilib non yopibdi.

Yana bir uy matodan to'n va har xil kiyim-kechaklar tikibdi. Kelgan parilar ishni tugatib, yana g'orga qaytib ketibdi. Er-xotin kiyimlarni bekitib, nonni yaxshilab taxlab qo'yishibdi.

Boyning katta kelinlari maslahat qilib:

– Дайте мне тоже муки и ситцу.

Услышали это его невестки и засмеялись:

– Эй, джигит, жены у тебя нет, что же ты будешь с мукой и ситцем делать? Научись сначала лепёшки печь, платья шить.

– Как-нибудь научусь, – говорит джигит.

Взял он муку и ситец и отнёс в свою юрту.

– Вот принёс то, что ты хотела, – невесело сказал джигит. – Но как мы будем лепёшки печь и платья шить – ума не приложу.

Пэри ему говорит:

– Это не твоя забота. Тебе с печкой да с иголкой возиться нечего. Ты только вот что сделай: поезжай к той пещере, где ты меня встретил, и не входя в неё, крикни: «Эй, пэри! Кто здесь хорошо умеет лепёшки печь? Кто хорошо шить умеет? Выйдите ко мне!»

Джигит взял лук и стрелы, сел на коня и отправился к пещере.

– Эй, эй, пэри! – закричал он. – Кто из вас умеет хорошо лепёшки печь, кто умеет платья шить, выходите ко мне!

Вышли пэри и говорят юноше:

– Здравствуйте! Заходите!

Но он в пещеру не пошёл, а взял с собою двух пэри и привёз домой.

Тут они тесто замесили, лепёшек напекли целую гору. Потом стали платья, халаты шить. Сделали эти две пэри всё, что надо было, и вернулись к себе в пещеру. А джигит и пэри лепёшки и одежду завязали в узлы и сидят себе как ни в чём не бывало, ждут.

Старшая невестка бая говорит жене среднего брата:

– Давай пойдём, посмотрим, что делает наш джигит. Как он домашним хозяйством занимается.

Пришли они в его усадьбу и видят: сидит младший сын старика в юрте и с пэри о чём-то разговаривает. Удивились невестки, вошли в юрту, сели и спрашивают:

– Что же вы сделали из муки и материи, которую вам отец дал?

– Да вот лепёшек напекли, а из материи сшили то да сё, – отвечает пэри.

Невестки её спрашивают:

– Boyvachcha nima qilib yotgan ekan, borib bir xabar olib kelaylik, – deyishibdi.

Ikki katta kelin ravotga yaqin borib qarashsa, kenja o'g'il pari bilan ikkovi o'tovda gaplashib o'tirgan emish. Ular ichkari kirib o'tirgach: «Olib kelgan narsalaringizni nima qildingizlar?» – deb so'rabdilar.

Pari esa:

– Unni ko'mach qildik, matolarni ham ulay-bulay qilib, tikib qo'ydik, – deb javob beribdi.

Katta kelinlaridan biri paridan so'rabdi:

– To'yga siz nima kiyib borasiz? Boshingizga nima yopinasiz?

Pari aytibdi:

– Men qog'ozdan qilingan ko'ylak, kamzul kiyib, qog'ozdan qilingan paranji yopinib boraman.

Katta kelinlar uyga qaytishibdi: «Bizlar ham shunday qilamiz?» deb o'ylashib, unni ko'mach qilib, matolardan kiyim tikishib chokini yirik yo'rma qilishibdi.

Xayr, qissani kalta qilmoq kerak. Boyning qarindoshi to'yga aytuvchi yuboribdi.

Hamma to'yga jo'namoqchi bo'libdi.

Boyning kichkina kelini chiroyli patir nonlarni, etagi keng burmali, yoqasi ravon tikilgan kiyim-kechaklarni bir qopga solib, og'zini bo'g'ib tayyorlab qo'yibdi. O'zi esa shohi kimxob, adras kiyimlarni kiyib, uning ustidan qog'ozdan yasalgan liboslarni kiyib tayyor bo'lib o'tiribdi.

Endi ikki og'iz so'zni boyning katta kelinlaridan eshiting. Boyning ikki katta kelini ham qilgan ko'machlarini bir qopga, tikilgan kiyimlarni ikkinchi qopga solib tayyorlab qo'yibdilar. Ular hech qanday libos kiymay qog'ozdan yasalgan liboslarnigina kiyib, tayyorlanib turibdilar.

Boy ot-arava qilib, uch kelinni bir aravaga, boshqa narsalarni ikkinchi bir aravaga solib, to'yga jo'nabdi.

Yo'lda birdan shamol turib to'polon bo'lib, havoga bir qora bulut chiqibdi, yomg'ir quya boshlabdi. Kelinlarning qog'ozdan yasalgan liboslari ivib, ustlaridan tushib ketibdi. Parining qog'oz libosi ostidan kiyimi yarqirab ko'rinibdi, uning husniga husn qo'shibdi. Ikki katta kelin birday yalang'och bo'lib qolibdilar.

– Ну, а себе вы какое платье для свадьбы сшили? Чем будете голову покрывать?

Пэри им отвечает:

– А я платье и халат себе из бумаги сошью, а на голову бумажную паранджу надену.

Вернулись домой старшие невестки и решили: «Сделаем так, как она». Напекли кое-как лепёшек, ситец покромсали, сшили как попало платья, а для себя стали из бумаги платья шить.

Конец всему бывает. Стали все собираться в дорогу. Пэри взяла свои лепёшки, красивые платья с широкими подолами и сборками, халаты, сложила всё это в мешок, завязала. Надела платье из шёлка и атласа с парчою, а сверху на него халат из бумаги натянула. А старшие невестки в один мешок уложили свои лепёшки, а в другой платья для подарков. На себя же они надели бумажные платья. Старик приказал запрячь две арбы.

На одну – посадил невесток, на другую – подарки положил, и поехали все на свадьбу. Вдруг поднялся ветер, набежала черная туча, полил дождь. Бумажные платья невесток намокли и расползлись, а у пэри из-под бумажного платья шёлковое платье заблестело, засверкало, красавица ещё краше стала. Так они и доехали. Ничего не поделаешь, пришлось старшим невесткам полуголым с арбы слезать, в дом идти. Как глянули старшие сыновья старика на своих жён, – со стыда готовы были сквозь землю провалиться. Хозяин дома, который свадьбу устраивал, пожалел невесток и велел дать им хоть что-нибудь из платья.

Уселись сыновья и невестки старика в горнице, позвали хозяина дома, начали его поздравлять и подносить свои подарки. Достали старшие невестки свои лепёшки, а они серые, как зола, смотреть на них страшно. Достали они шитьё своё: платья косые, узкие, надеть их невозможно.

Подошла очередь младшей невестки. Лепёшки достала – все смотрят: лепёшки у неё румяные, сдобные, лучше, чем у всякого пекаря; платья достала – платья её лучше, чем у заправской портнихи. Все гости диву дались, на её лепёшки и платья глядели не нагляделись. Один из гостей спрашивает старика:



Ular shunday sharmandagarchilik bilan to'yxonaga yetib borishibdi. Boyning o'g'illari ikki kelinni bu ahvolda ko'rib, uyalib kelinga darrov ust-bosh berib, kiyintirib qo'yibdi.

O'g'il va kelinlar to'yxonaga kirib, uy egasini chaqirib: «To'y qutlug' bo'lsin» deyishibdi. Har qaysi kelin o'zi yopib kelgan nonni, tikib kelgan kiyimlarini ko'rsatmoqchi bo'lishibdi.

Avval boyning ikki katta kelini yopib kelgan nonlarini ko'rsatishibdi. To'yxonadagilar qarashsa, hammasi kulga o'xshagan ko'mach emish, tikib kelgan kiyimlarini ko'rsatishibdi, qarashsa, kiyimlar ham rasvo, kiyib bo'lmaydigan emish.

Navbat boyning pari keliniga yetibdi. U ham yopib kelgan nonlarini, tikib kelgan kiyim-kechaklarini birma-bir ko'rsatibdi. Nonlari novvoyning nonidan ham chiroyli, kiyimlari usta tikuvchilarning kiyimlaridan ham go'zal tikilgan emish. To'yxonadagi hamma odamlar bu kiyimlarni va nonlarni ko'rib hayron bo'lib tomosha qilibdilar. To'yxonadagi bir odam boydan:



– Где вы нашли такую хорошую жену своему младшему сыну?

Не знал старик, что и сказать, и придумал первое, что пришло в голову:

– Она дочь одного бедного человека из соседнего кишлака.

Наступила ночь. Когда все уснули, старик отозвал в сторону младшего сына и спрашивает:

– Сынок, куда ты кладёшь кошачью шкурку, которую твоя жена надевает?

Понял джигит, что тайна его раскрылась, и растерялся:

– А зачем она вам, отец? Что вы с ней делать хотите?

– Я тебя спрашиваю, – говорит старик, – значит, отвечай.

Не хотел ему сын говорить, но старик заставил, и пришлось всё рассказать:

– Я её положил под попону белого коня.

Вытащил старик кошачью шкурку, которую пэри надевала, и кинул её в огонь. Почувствовала пэри по запаху, что её кошачья шкурка горит, и попросила одну старушку:

– Kichkina o‘g‘lingizni qayerdan uylantirgansiz, boy bobo? – deb so‘rabdi.

– Narigi qishloqdagi bir kambag‘alning qizi, – debdi boy.

Kech bo‘lgach, boy o‘g‘illari bilan bir uyda yotibdi. Kelinlar boshqa bir uyda yotibdi. Hamma yotgandan keyin boy kichkina o‘g‘lini bir ovloqqa chaqirib olib, sekin so‘rabdi:

– Bolam, ayolingning mushuk libosini qayerga qo‘ygansan?

– So‘rab nima qilasiz, ota? – debdi kenja o‘g‘il.

– Ey bolam, so‘rayman-da, – deb javob beribdi chol.

Kenja o‘g‘il gapni chalg‘itibdi. Boy hech aytmaganiga qo‘ymabdi.

Oxiri kenja o‘g‘il aytibdi:

– Parining mushuk teri libosini bo‘z otning yopg‘ichi tagiga qo‘yganman.

Boy bo‘z otning yopg‘ichi tagidan parining mushuk libosini olib, o‘tga tashlabdi. Mushuk libosining kuygan isi parining dimog‘iga uribdi.

Pari bir kishiga:

– Mening erimni chaqirib keling! – debdi. U topib kelibdi. Kenja o‘g‘il xotining yoniga kelib:

– Ha, nima deysan?– deb so‘rabdi.

Pari aytibdi:

– Ey yigit, endi qirq botmon temirdan hassa yasaysan, qirq botmon temirdan choriq tikasan, hassang juvoldizday bo‘lguncha, chorig‘ing g‘alvirday bo‘lguncha meni izlaysan. Endi sen menga yo‘q, men senga yo‘q, – deb bir parvoz qilib, o‘tovning tuynugidan chiqib ketibdi. Kenja o‘g‘il chapak chalib qolaveribdi.

Bugun o‘tibdi, tong otibdi, to‘y tarqabdi, mehmonlarning har qaysisi uy-uyiga ketibdi. Boy ham o‘g‘illari bilan uyiga qaytibdi.

Kenja o‘g‘il qirq botmon temirdan hassa qilib, qirq botmon temirdan choriq qilib kiyib olibdi. Endi kenja o‘g‘il parini izlab yuraversin, gapni boydan eshiting.

Kundan-kun, oydan-oy, yildan-yil o‘tibdi.

Bir kun boy aytibdi:

– O‘g‘limning yo‘q bo‘lganiga uch yil bo‘ldi, buning bor-yo‘qligini bilayin, agar yo‘q bo‘lsa, xatmi qur‘on qilayin, – debdi. To‘rt yoqqa to‘rt odam yuboribdi. Har qaysisi bir oylik oziq olib chiqib ketibdi.

Izlab-izlab, o‘ttiz besh kun deganda to‘rttovi to‘rt yoqdan qaytib, boyning oldiga kelibdi. Boy ular bilan so‘rashgandan keyin:

– Hech xabar topdilaringmi? – deb so‘rabdi.

– Позовите мне моего мужа.

Пришёл джигит к ней и спрашивает:

– Зачем ты меня звала?

Пэри ему говорит:

– Эх, джигит! Сделай теперь себе железный посох весом в тысячу пудов, на ноги железные сапоги, весом тоже тысячу пудов, надень их и ходи по свету, ищи меня до тех пор, пока посох твой не станет тоненьким, как иголка, а сапоги не станут дырявыми, как решето! Нет теперь у тебя больше меня, а у меня – тебя нет!

Сказала так пэри, поднялась в воздух и улетела из юрты через отверстие, сквозь которое дым выходит. Стоит джигит посреди юрты и с горя себя ладонями по голове бьёт.

Ночь прошла, рассвет наступил, свадьба кончилась, гости домой разъехались. Старик со своими сыновьями тоже домой вернулся.

Сделал себе младший сын железный посох в тысячу пудов, выковал у кузнеца железные сапоги и пошёл искать свою пэри. Пусть себе он ходит, пэри ищет, а вы послушайте про старика.

День за днём идёт, месяц за месяцем, год за годом. Однажды старик говорит:

– Вот уже три года прошло, как сын ушёл. Надо узнать, жив он или погиб! Если погиб он – надо хоть поминки справить.

Позвал он четырёх человек, дал каждому еды на месяц и послал их искать джигита. Искали они его искали и через тридцать пять дней вернулись все четверо к старику с разных сторон. Старик поприветствовал всех как полагается: «Ходить вам не уставать!» и спрашивает:

– Ну хоть что-нибудь узнали?

Один из них говорит:

– Эх, отец! Уже три года прошло с тех пор, как ваш сын ушёл. Если бы он жив был, то уж за это время вернулся бы домой. Так что сами понимаете, где он.

Старик посоветовался со старшими сыновьями и созвал всех жителей кишлака, старых и малых, справлять по младшему сыну поминки.

Пусть себе они поминки справляют, а вы послушайте про джигита.

Ulardan biri javob beribdi:

– Ey, boy bobo, o'g'lingizning ketganiga uch yildan oshib borayotir. Bor bo'lsa qayerda bo'lsa ham kelar edi. Endi u yog'ini o'zingiz bilasiz, – debdi.

Boy katta o'g'illari bilan o'ylashib, kengashib, qishlog'ining katta-kichigini yig'ib, o'g'lining xudoyisini o'tkazibdi.

Bular xudoyi qila tursin, endi ikki og'iz so'zni kenja o'g'ildan eshiting.

Kenja o'g'il tog', sahro, dasht-biyobonlarni kezibdi. Kunlardan bir kun yurib-yurib, yo'li bir ravot yonidan tushib qolibdi. Ravotning yonida bir sarhovuz bor ekan. Suv talab bo'lgan yigit bir dam nafasimni rostlab olayin deb, haligi hovuzning labiga borib o'tiribdi. Shu orada ravotdan bir bola chiqib, qo'lidagi obdastani hovuzdan to'ldirib olibdi. U ketayotganida yigit bolani chaqiribdi:

– Ey, bola, suvingni olib kel, bir ichib berayin.



Долго ходил он по горам и долам, по степям и пустыням. И однажды увидел одинокую усадьбу. Зашёл он в сад и присел на берегу хауза отдохнуть. В это время из усадьбы вышел мальчик с кувшином, зачерпнул воды из хауза.

Джигит его попросил:

– Мальчик, дай мне воды напиться!

А тот отвечает:

– Какой же ты чужак! Сидишь около воды, а у меня пить просишь.

И пошёл в дом.

– Так пусть же вода в твоём кувшине в кровь превратится! – рассердился джигит.


А в этой усадьбе жила страшная старуха Алмауз Кампыр. Мальчик ей прислуживал. И пэри – жена джигита – тоже здесь была. Это она и посылала мальчика за водой.

Принёс мальчик кувшин к пэри, а она и говорит:

– Полей мне на руки!

Начал мальчик поливать, а из кувшина не вода, а кровь полилась.

– Ах ты безобразник! – говорит пэри.



Bola:

– Sen qanday odamsan, oldingda suv turibdi-ku, menga suv ber deysan, – deb ketaveribdi.

– Shu obdastangdagi suv qon bo‘lib qolsin! – debdi yigit.

Bu ravotda yalmog‘iz kampir yashar ekan. Suv olib kirib ketgan bola kampirning xizmatkori ekan. Yigitning izlab yurgan parisi ham shu yerda ekan. Pari bolani suvga chiqargan ekan. Bola suvni olib kirganda: «Quy qo‘limga!» debdi pari. Bola quyibdi, parining qo‘liga suv emas, qip-qizil qon quyilibdi. Pari:

– Ha, juvonmarg, men senga suv olib kel desam, qon olib kelibsanda, – debdi. Bola hayron bo‘libdi. Yana hovuzga suv olish uchun chiqibdi. Bola obdastani chayqab-chayqab tashlab, yana to‘ldirib suv olib qaytibdi. Buni ko‘rib turgan yigit:

– Hoy bola, obdastangni olib kel, suvingdan bir ichib berayin, – debdi.

– Ey, sen qanday odamsan, oldingda hovuz turib, suv tilaysan, ichsang hovuzdan ichaver-da, – deb suvni olib ketaveribdi.

– Shu suving yiring bo‘lib quyilsin, – debdi yigit. Bola suvni ichkariga olib kiribdi. Pari:

– Quy qo‘limga! – debdi. Bola suvni parining qo‘liga quyibdi. Suv yiring bo‘lib quyilibdi. Pari bolani urishib:

– Juvonmarg, sen bunday emas eding-ku, senga bir balo bo‘ldimi, hali qon to‘ldirib kelasan, hali yiring to‘ldirib kelasan, hovuzning labida nima bor? Ayt! – deb bir-ikki tarsaki uribdi. Bola:

– Hovuzning labida bir yigit o‘tiribdi, men har safar suv olib ketayotganimda «Hoy bola, suvingni olib kel, bir ichib berayin» deb, mendan suv so‘raydi. Men unga suv bermay, olib kelaman, – debdi.

– Bor, endi u suv so‘rasa, ichirib olib kel, – debdi pari.

Bola yana obdastani chayqab-chayqab hovuzdan toza suv olib kelayotganda yigit, chaqirib: «Hoy bola, obdastangni olib kel, suvingdan bir ichib berayin» debdi. Bola bu safar obdastadagi suvni yigitga tutibdi. Yigitning qo‘lida parining bir uzugi bor ekan, shu uzukni obdasta ichiga tashlab yuboribdi. Yigit so‘rabdi:

– Ey, bola, bu suvni nima qilasan?

Bola:

– Opamning qo‘liga quyaman, – debdi. Yigit bolaga o‘rgatibdi.

– Opangning qo‘liga quysang, avval jinday tomiz, «Quy» desa yana biroz tomiz. «Durustroq quy» desa obdastadagi hamma suvni ag‘darib yubor, – debdi. Bola suvni olib kirib, parining qo‘liga quya

– Я тебе сказала воды принести, а ты кровь принёс!

Удивился мальчик и опять побежал к хаузу за водой. Выполоскал кувшин, воды набрал. А байбача ему говорит:

– Эй, мальчик! Дай мне из твоего кувшина напиться!

– Что ты за человек? – отвечает ему мальчик. – Ты сидишь у хауза, пей, сколько хочешь, хоть весь хауз выпей.

И унёс кувшин. А байбача говорит ему вслед:

– Так пусть же вода твоя в гной превратится!

Пришёл мальчик в дом, пэри говорит ему: «Полей мне на руки!» Стал мальчик поливать, а из кувшина не вода, а гной льётся. Рассердилась пэри и стала его бранить:

– Ах, ты! Негодник ты этакий! Что это с тобой сегодня? Что там около хауза делается? Говори!

Мальчик ей рассказал:

– На берегу хауза какой-то джигит сидит. И оба раза, когда я за водой ходил, он у меня напиться просил, а я ему не дал.

– Иди ещё раз, – говорит пэри, – и если он у тебя воды попросит, не жалея, дай ему напиться.

Пошёл мальчик к хаузу, выполоскал кувшин и чистой воды набрал. Джигит его снова просит:

– Мальчик, подойди сюда с кувшином, дай мне напиться.

На этот раз мальчик подошёл, подал ему кувшин.

Напился джигит и спросил:

– Ты кому воду носишь?

– Я её сестре несу, она умываться будет. У меня сестра пэри.

Стал джигит расспрашивать мальчика и из его ответов понял, что пэри эта – его жена.

Тогда он снял с пальца кольцо, которое ему подарила когда-то пэри, бросил его в кувшин и сказал:

– Когда сестра попросит тебя ей на руки полить, ты ей чуть-чуть полей. Она тебе скажет: «Лей больше!», – ты ещё немного подбавь. А она скажет: «Да лей же как следует!», – ты возьми и вылей всю воду из кувшина.

Пошёл мальчик в дом с водой.

– Ну-ка, полей мне! – попросила пэри.

Мальчик тихонько капнул ей две капельки.

– Да лей же побольше! – приказала пэри.

boshlabdi. Bu safargi suvda na qon bor, na yiring, top-toza tiniq suv emish. Pari:

– Quy! – debdi.

Bola sekingina ikki tomchi quyibdi. Pari:

– Tuzukroq quysang-chi, senga bir balo bo'ldimi? Ilgari bunday emas eding-ku! – debdi.

Bola obdastani ag'darib yuboribdi. Yigitning obdastaga solgan uzugi parining qo'liga tushibdi. Bu uzukni pari tanibdi. O'zining uzugini bolaga bildirmay qo'liga taqib olibdi. Pari bolani bir yoqqa ishga buyuribdi. Yalmog'iz kampirning yo'qligidan foydalanib, pari ravotdan chiqib qarasa, yigit hovuz bo'yida o'tirgan emish. Uni chaqirib olibdi, ravotga olib kirib, sandiqqa solib bekitib qo'yibdi. Kech bo'libdi, yalmog'iz kampir daladan qaytibdi.

Atrofga qarab, alanglab: «Bu nima? Ravotdan odam isi keladi. Bunda odamzod bormi?» – debdi u. Pari:

– Bu yerda odamzod nima qiladi, sizning makoningizga odamzodning kelishga haddi bormi? – deb javob beribdi. Yalmog'iz kampir indamay qolibdi.

Kampir har kuni ertalab chiqib ketar ekan. Pari bo'lsa yigitni sandiqdan chiqarib olib, gaplashib o'tirar ekan. Kunlardan bir kun pari yigitdan so'rabdi:

– Ey, yigit, nega ranging sariq, senga bir sitam o'tdimi?

– Ey, nozanin, – debdi yigit, – endi men shunday qilib yuraveramanmi? Umrimning yarmidan ko'pi seni deb sarsongarchilikda o'tib borayotibdi, bu yerdan bir iloj qilib ketishni o'ylasang-chi!

Pari:

– Ey, yigit, men ham ketmoqning payidaman, biroz sabr qilaylik, – debdi.

– Ey, parizod, agar bugun-erta bir iloj qilib ketmasak, diqqatim oshib sil bo'laman, – debdi yigit. Pari:

– Hoy yigit, yana aytaman: sabr qil, oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug', – deb eriga dildorlik qilibdi.

Kech bo'lib, yalmog'iz kampir kelib, damini olib o'tiribdi-da:

– Hoy bolalarim, o'tiribsizlarmi? – debdi. Biroz o'tgach, yana so'zlabdi, – Ravotdan odamzodning hidi keladi. Sen parizod nima uchundir buning sababini menga aytmaisan.

Pari aytibdi:

– Ey, ena, bir qoshiq qonimdan kechsang aytar edim.

– Ha ayta qol, bolam. Qancha gunohing bo'lsa kechdim, – debdi kampir. Shunda pari:

Тогда мальчик перевернул кувшин и вылил ей на руки всю воду. А вместе с водой на руки пэри и кольцо упало, которое джигит в кувшин опустил.

Пэри сразу узнала кольцо, взяла его и, ни слова не говоря мальчику, на палец надела. Потом выбежала она из усадьбы, обняла мужа, привела его в дом и спрятала в сундуке.

Вечером вернулась домой Алмауз Кампыр. Покрутилась она на все четыре стороны, поглядела и спрашивает:

– Что это? Как будто человеческим духом пахнет. Что здесь, человек появился?

Пэри говорит ей:

– А что здесь человеку делать? Да и кто осмелится в вашем жилье появиться?

На том разговор и кончился.

А у Алмауз Кампыр был обычай: каждый день утром уходить из дому. Пэри сейчас же выпускала джигита из сундука и веселилась с ним. А если случалось, что Алмауз Кампыр неожиданно возвращалась раньше, чем обычно, то пэри превращала юношу в цветок и вплетала этот цветок себе в волосы.

Однажды пэри спрашивает юношу:

– Эй, любимый! Отчего ты такой бледный? Что тебя так беспокоит?

Джигит отвечает:

– О прекрасная! До каких пор мы здесь прятаться будем. И так половина жизни моей ушла на то, что я искал тебя! А ты не думаешь о том, как нам отсюда выбраться?

– Как не думаю? – говорит пэри. – Но надо подождать ещё немного.

– Сил у меня больше нет ждать, – говорит джигит. – Если сегодня-завтра мы ничего не придумаем, от такой жизни я заболею.

– Ничего, любимый, потерпи ещё, – уговаривает его пэри. – Так уж свет устроен, что полмесяца ночи тёмные, а полмесяца – светлые.

Однажды вечером Алмауз Кампыр вернулась домой, уселась во дворе и говорит:

– Ой, что-то человеческим духом пахнет. Что-то ты пэри, от меня скрываешь.

Испугалась пэри и говорит ей:

– Enajon, meni olib kelgan vaqtingizda, o‘n to‘rt-o‘n besh yoshli sag‘ir ukam qolgan edi. Katta bo‘lib, meni izlab kelgan ekan. Qancha kunlardan beri sizdan qo‘rqib, sandiqqa solib yashirib yuribman. Mehribonchilik qilsangiz, shu birgina ukam sizning davlatingizda yursa, – deb iltimos qilibdi. Yalmog‘iz kampir:

– Xo‘p, mayli, bolam, bu odam yursa, yursin, – debdi-da, ko‘nglida «Buni ham so‘rib o‘ldiraman-da», – deb o‘ylabdi.

Kunlar o‘ta boshlabdi. Qurg‘ur yalmog‘iz kampirning rusumi shunday ekan: har kuni yigitning tizzasiga boshini qo‘yib, uning qonini so‘rib yotar ekan. Yalmog‘iz biror kimsaning qonini so‘rsa, besh-o‘n kunda uni o‘ldirar ekan. Yigit holdan toya boshlabdi, u zorlanib holdan ketayotganini aytib: «Endi nima qilamiz, buning ilojini qilmasak bo‘lmaydi», debdi. Pari aytibdi:

– Buning ilojini men senga aytay, sen men aytganimdek qil. Yalmog‘iz kampirning bir tuyasi, bir kuchugi bor, hamma vaqt kuchugiga somon berib, tuyasiga esa suyak tashlaydi. Yana bir uyi bor, u uyning ikki eshigi bor. To‘rdagi eshik hamma vaqt yopiq turadi. Poygohdagi eshik esa ochiq turadi. Uyning o‘rtasida bir ustun bor. Uyning tokchasida bir oyna, bir qaychi, bir taroq turadi. Ey yigit, bugun yalmog‘iz daladan qaytib, uyga kirib o‘tirganda tuyasiga somon, kuchugiga suyak tashlab qo‘y. Eshikning to‘rdagisini ochib, poygohidagisini qo‘ygin-da, o‘zing ustunning tagiga borib o‘tir. Shunda yalmog‘iz kampir: «Kel boshimni qarab qo‘y», desa, sen: «Ey ona, o‘zim charchab turibman, o‘zingiz kela qoling», deb ayt. Kampir kelib tizzangga boshini qo‘yib uxlaganida sen uning sochini ustunga o‘rab, mahkamlab bog‘la. Butun sochini bog‘lab bo‘lgach, sekin o‘rningdan turib, tokchadagi oynani, taroqni, qaychini olib qo‘yningga sol. To‘rdagi eshikdan chiq. Men tashqarida seni kutib turaman. Ikkimiz birgalashib qochib ketamiz, – debdi.

Biroz o‘tgach, yalmog‘iz kampir uyga kirib:

– Ey bolalarim, bugun men ko‘p charchadim, tuya bilan kuchukka yaxshi qaranglar! – deb ust-boshini yechib, yonboshlab yotibdi. Yigit tuyaning oldiga somon, kuchukning oldiga suyak tashlab qo‘yibdi. So‘ngra to‘rdagi eshikni ochib, poygohdagi eshikni yopib, o‘zi ustunning tagiga borib o‘tiribdi. Shunda yalmog‘iz yigitga qarab:

– Kel, bolam, boshimni qarab qo‘y! – debdi. Yigit:

– Ey ona, o‘zim charchab turibman, o‘zingiz kela qoling, – debdi. Kampir kelib yigitning tizzasiga boshini qo‘yibdi. Kampirning ko‘zi ilinibdi.

– Эх, бабушка! Если кровь мою пощадите, я вам всё расскажу.

– Ну, рассказывай, дочка! Так уж и быть, прощу твои грехи.

– Когда вы меня привели сюда, бабушка, у меня остался брат-сирота, ему было лет четырнадцать-пятнадцать. А теперь он вырос и пошёл меня искать. Уже несколько дней я его в сундуке прячу, вас боюсь. Сделайте милость, разрешите ему вместе с нами в вашем доме пожить.

– Ладно, дочка, – отвечает Алмауз Кампыр. – Если уж он пришёл сюда, то пусть живёт с нами.

А сама подумала: «Я всю кровь его выпью».

Проходили дни. Коварная Алмауз Кампыр завела такую привычку: каждый день она клала свою голову юноше на колени и заставляла его расчёсывать её волосы, а сама в это время высасывала из него кровь. А надо сказать, эта Алмауз Кампыр за пять-десять дней могла высосать у человека всю кровь, и тогда он умирал.

Начал джигит слабеть, и говорит он пэри:

– Что же нам делать? Неужели мы и теперь от ведьмы не избавимся?

Пэри его утешает:

– Я придумала, как нам спастись. Только ты делай всё точно так, как я скажу. Слушай меня внимательно! У Алмауз Кампыр есть верблюд и собака. И она всё время собаку кормит соломой, а верблюда – костями. Ещё у Алмауз Кампыр есть особая комната. Переднюю её дверь она всё время держит закрытой, а заднюю – открытой. Посреди комнаты стоит столб, а на полке лежат зеркало, ножницы и гребень.

Так вот, когда сегодня Алмауз Кампыр домой вернётся и сядет в этой комнате, ты дай верблюду соломы, а собаке костей брось. Потом войди в эту комнату и сядь около столба, а дверь не закрывай.

Когда Алмауз Кампыр прикажет расчёсывать ей волосы, ты скажи: «Ах, бабушка! Я очень устал сегодня, с места встать не могу, подойдите ко мне!» Алмауз Кампыр подойдёт к тебе и положит свою голову тебе на колени. А чуть только она заснёт, ты обмотай её волосы вокруг столба и крепко привяжи. Тогда встань тихонько, возьми с полки зеркало, гребень и ножницы и спрячь их себе за пазуху. Открой переднюю дверь и выходи во двор. Я тебя там ожидать буду. Так мы и убежим.



Yigit: «Ha, palla-palla, shu palla», deb kampirning sochini ustunga o'rab, mahkam bog'labdi. Kampirning boshini sekin tizzasidan olib, yerga qo'yib, taroq, oyna va qaychini olib, qo'yniga solib, to'rdagi eshikdan tashqari chiqibdi.

Kampir birdan uyg'onib, «Yopil, eshigim, yopil», debdi. Eshik esa:

– Men nega yopilayin, hamisha meni yopib qo'yar eding, – debdi. Kampir poygohdagi eshigiga qarab: «Ochil, eshigim, ochil», debdi.

Eshik:

– Men nega ochilayin, meni hamisha ochib qo'yar eding, – deb javob beribdi. Yalmog'iz ichkaridan «Ol, tuyam, ol!» deb baqiribdi.

Tuya:

– Men nega olayin, mening oldimga hamisha suyak solib qo'yar eding, – debdi.



Скоро вернулась Алмауз Кампыр, зашла в свою комнату и говорит:

– Покормите, ребятки, верблюда и собаку! Я очень сегодня устала.

Байбача положил верблюду солому, а собаке костей дал. А потом открыл переднюю дверь, вошёл в комнату, заднюю закрыл и сел около столба. Алмауз Кампыр говорит ему:

– Подойди ко мне, юноша, расчеши мне волосы!

А джигит ей говорит:

– Ох, бабушка! Я так устал, что сил нет подняться. Подойдите ко мне сами!

Подошла к нему Алмауз Кампыр, голову на колени ему положила и заснула. Взял джигит её волосы и стал приговаривать: «Вот эту прядь сюда, а эту сюда, а эту вот так!» – закрутил их сорок раз вокруг столба и привязал крепко-накрепко. Приподнял осторожно джигит голову Алмауз Кампыр со своих колен, положил её на землю. А сам встал, взял с полки зеркало, гребень и ножницы, спрятал за пазуху и вышел через переднюю дверь во двор. Вдруг Алмауз Кампыр проснулась, попыталась вскочить, а волосы, привязанные к столбу, её не пускают.

Yalmog'iz:

– Kuchugim, ol! – deb baqiribdi.

Kuchuk:

– Men nega olayin, oldimga har vaqt somon solib qo'yar eding, – debdi.

Eshiklar ham, tuya ham, it ham yalmog'izning aytganini qilmabdilar. U nima qilishini bilmay qolibdi. Shu vaqtda yigit bilan pari jo'nab ketibdi.

Yalmog'iz kampirning sochi juda uzun ekan, yigit uni ustunga qirq o'rab, mahkam bog'lagan ekan. Yalmog'iz ne azoblar bilan sochini yechib, bo'shatib olibdi va yigit bilan parining ketidan quvib ketibdi. Yalmog'iz uch kecha-yu uch kunduz quvib, bir cho'lda yigit bilan parining orqasidan yetib olibdi.

Ular yalmog'iz kampirning tarog'ini tashlabdi. Taroq katta bir to'qay bo'lib, kampirning oldini to'sibdi. Kampir qichqirib:

– Hoy, bolalarim, bu to'qaydan qanday qilib o'tdilaring? – deb so'rabdi.

Har ikkisi:

– Ey ona, bir tishimizni sug'urib tesha qildik, bir tishimizni sug'urib, bolta qildik, shu bilan to'qaydan yo'l ochib o'tdik, – deb javob berishibdi va chopib ketaverishibdi.

Kampir bir tishini sug'urib bolta, bir tishini sug'urib tesha qilibdi. To'qaydan yo'l ochib chiqib, yigit bilan parini quvaveribdi. Ular qochaveribdi. Ikki kecha-yu ikki kunduzdan keyin yalmog'iz ularga yetib olibdi. Ular qaychini tashlab qochibdilar. Qaychi ham boshi va oxiri ko'rinmaydigan katta to'qayga aylanibdi.

To'qay kampirning oldini to'sib qolibdi. Yalmog'iz:

– Hoy bolalarim, bu to'qaydan qanday qilib o'tdilaring?! – deb so'rabdi.

Pari:

– Ey ena, bir tishimizni sug'urib bolta qildik, bir tishimizni sug'urib tesha qildik. Shu bilan to'qaydan yo'l ochib o'tdik, – debdi.

Yalmog'iz yana bir tishini sug'urib bolta qilibdi, bir tishini sug'urib tesha qilibdi. Aslida kampirning to'rtta tishi bor ekan, to'rttovi ham tamom bo'libdi. Yigit bilan parining maqsadi kampirning to'rtta tishini yo'q qilish ekan. Shunda pari bilan yigit quvonib ketaveribdilar.

Kampir esa bolta va tesha bilan daraxtlarni kesib, to'qaydan chiqib ketibdi. Yana ularni quva beribdi.

– Закройся, передняя дверь, закройся! – закричала Алмауз Кампыр.

А дверь ей отвечает:

– Зачем я буду закрываться, ты меня и так всегда закрытой держала!

Алмауз Кампыр задней двери кричит:

– Откройся, моя дверь, откройся!

А задняя дверь ей отвечает:

– А зачем я буду открываться, ты меня всегда открытой держала!

Алмауз Кампыр кричит из комнаты:

– Эй, мой верблюд, держи их, держи!

А верблюд отвечает:

– Зачем я буду их держать, ты мне всегда кости бросала!

Алмауз Кампыр собаке кричит:

– Эй, моя собачка, хватай их, хватай!

– Зачем я их буду хватать, – отвечает собака, – Ты всегда меня соломой кормила.

Ни двери, ни верблюд, ни собака не захотели слушать Алмауз Кампыр. Растерялась совсем старуха, не знает, что ей делать. Тем временем джигит и пэри убежали. С большим трудом ведьма отвязала волосы и пустилась в погоню за беглецами. Три дня и три ночи гналась Алмауз Кампыр за джигитом и пэри и, наконец, догнала их в далёкой пустыне. Увидел юноша, что Алмауз Кампыр их догоняет, и бросил на дорогу гребень. Вырос тут густой лес.

Алмауз Кампыр кричит:

– Эй, ребятки, как вы через этот лес прошли?

А юноша и пэри ей отвечают:

– А мы, бабушка, вырвали у себя два зуба. Из них топоры сделали. Этими топорами себе дорогу прорубили.

Вырвала Алмауз Кампыр у себя зубы, топоры сделала. Прорубила себе через лес тропинку и помчалась за джигитом и его прекрасной пэри.

Тогда юноша бросил на дорогу ножницы. На дороге такой лес поднялся, что ему ни начала ни конца не видно. Алмауз Кампыр опять кричит:

– Эй, ребятки! А через этот лес вы как пробрались?

Пэри ей отвечает:

– Мы, бабушка, ещё два зуба вырвали и опять из них топоры сделали, так и прорубили себе дорогу.

Ikki kecha-yu ikki kunduzdan keyin yalmog'iz kampir yigit bilan pariga yetayozibdi. Ular endi oynani tashlab ketishibdi.

Oyna bir katta daryo bo'lib qolibdi. U daryoning tagi va poyoni yo'q emish. Kampir daryoning labiga borib hayron bo'libdi.

– Hoy bolalarim, bu daryodan qanday qilib o'tdilaring? – debdi. Yigit:

– Ey ena, ko'ylagimizni yechib, uni toshga to'ldirib, og'zini bo'g'ib, bo'ynimizga ilib, daryoning tagi bilan o'tdik, – debdi.

Yalmog'iz yigitning aytganidek qilibdi va o'zini daryoga tashlash oldidan yigit va pariga qarab qichqiribdi:

– Hoy bolalarim, men o'zimni daryoga tashlaganimdan keyin oq ko'pik chiqsa, qah-qah urib kulinglar, qizil ko'pik chiqsa zor-zor yig'langlar! – debdi-da, o'zini daryoga tashlabdi.



Алмауз Кампыр давай у себя опять зубы рвать, топоры делать. А у неё всего-навсего четыре зуба было. Увидели джигит и пэри, что у ведьмы ни одного зуба не осталось, обрадовались и дальше побежали.

Алмауз Кампыр схватила топоры, прорубила себе в чаще дорогу, вышла из леса и дальше за джигитом и пэри погналась. Прошло два дня и две ночи, опять начала настигать их Алмауз Кампыр.

Теперь они на дорогу зеркало кинули. Разлилась река, и такая, что конца не видать. Остановилась Алмауз Кампыр у этой реки и закричала:

– Эй, ребятки, как вы через эту реку переправились?

– А мы, бабушка, – отвечает ей джигит, – одежду с себя сняли, ворота и рукава завязали, наложили в неё камней, а потом привязали их к себе на шею, на дно опустились и перешли речку по дну.

Алмауз Кампыр сделала так, как он сказал, и закричала:

– Ну вот, ребятки, я сейчас на дно опускаюсь. Если белая пена появится, то смейтесь от радости, а если красная пена появится, то плачьте, рыдайте.

Biroz vaqt o'tgach daryoni oq ko'pik tutib ketibdi. Yigit bilan pari ko'pikni ko'rib uvvos tortib yig'lay berishibdi. Yana biroz vaqtdan keyin qarashsa, daryoning betini qon tutib ketibdi. Har ikkisi yalmog'iz kampirdan qutulib, quvonib uch kecha-yu uch kunduz yo'l yurib, o'z ravotlariga yetib kelibdilar. Yigit pari bilan o'ynab-kulib yuraveribdi.

Yigitning ota-onasi, aka-ukasi, qavm-qarindoshlari kelib dimog'lari chog' bo'libdi. Har ikkisi murod-maqsadiga yetibdi.



Бросилась Алмауз Кампыр в реку.

Прошло немного времени, появилась на реке белая пена. Как увидели её юноша и пэри, горько заплакали. Ещё немного времени прошло, смотрят они – а по реке уже красная пена плывёт. Тут джигит и пэри обрадовались, засмеялись, потому что поняли, что наконец-то они от ведьмы избавились. Прошли они ещё три дня и три ночи и добрались до своей усадьбы.

Стали они опять в своём доме жить. Так джигит и прекрасная пэри достигли исполнения своих желаний.

1470e
900c

O'zbek xalq ertagi

BOYVACHCHA BILAN PARI

(O'zbek va rus tillarida)

Muharrir: *L. Maxmud*

Musahhih: *I. Malikova*

Texnik muharrir: *R. Malikov*

Rassom: *B. Musayev*

Badiiy muharrir: *O. Fozilov*

Kompyuterda tayyorlovchi: *G. Valiyeva, S. Bobrova*

Bosishga ruxsat etildi 12.09.2009. Qog'oz bichimi 60x84¹/₈.

Arial garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli b.t. 3,72. Nashr t. 4,35. 5 000 nusxada chop etildi.

Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma № 592.

«Credo print group» qo'shma korxonasi.
Toshkent, Jahon Obidova ko'chasi, 160.

